

Мавзу: Тупроқ классификацияси (таснифи)

Режа:


1. Тупроқлар систематикаси haqida tushuncha.
2. Тупроқлар классификацияси (tasnifi).
3. Тупроқлар taksonomiyasi.

Тупроқ **абсолют ва нисбий** ёши ажратилади.

Тупроқ пайдо бўлишидан бошлаб ҳозирга қадар ўтган вақт **абсолют ёш** ҳисобланади.

(ёши катта тупроқ тропик ҳудудда жойлашган тупроқлар ҳисобланади)

Нисбий ёши тупроқ пайдо бўлиш жараёнларидаги турли босқичларнинг бир-бири билан алмашинув вақтини характерлайди. (жинсларнинг таркиби ва хоссалари, тупроқ пайдо бўлиш жараёнларининг тезлиги ва йўналиши, жойнинг рельеф)





Ер шарида кенг тарқалган баъзи тупроқ турлари



Тундранинг
тундра-глей
тупроқлари



табiiй
худудла



Кўчирилган ва
иғнабаргли
подзолли
тупроқлари



Баргли ўрмонларнинг
жигарранг ўрмон
тупроқлари



Нам экваториал
ўрмонларнинг
ферралит тупроқлари



Чўл ва ярим
чўлларнинг серозем
тупроқлари




Дашт ва ўрмон-
даштларнинг қора
тупроқлари

Муайян табиий шароитларда тупрок пайдо қилувчи омилларнинг таъсирида турли она жинслардан тупрок профилининг шаклланишига **тупроқнинг ривожланиши** дейилади.

Эволюцияси деганда тўлиқ равишда яхши шакланган тупроқларнинг **турли ва янги** вужудга келадиган тупрок пайдо қилувчи омиллар таъсирида ўзгаришига тушунилади.





Фридрих Альберт
Фаллу (1794-1877)

тувроқ
пайдо қилувчи
жинсларнинг таркибига
кўра классификация



Вильгельм Кноп (1817-1891)

тувроқларнинг кимёвий таркибига
асосланган классификациялашни
таклиф қилган



В.В.Докучаев ва Н.М.Сибирцевнинг генетик классификацияси ҳозирга қадарли ўз моҳиятини йўқотмаган ва жаҳоннинг барча мамлакатларида қабул қилинган ҳамда шу асосда қатор янги классификациялар ишлаб чиқилган.



Yer yuzasi tuproq qoplami, o'zining murakkab tuzilisli va xilma -xilligi bilan xarakterlanadi.

Tuproqlarni o'xshash belgilari, kelib chiqishi va unumdorligi kabi xususiyatlariga ko'ra muayyan gruppalarga birlashtirishga **tuproq klassifikatsiyasi** (tasnifi) deyiladi

ТАСНИФ (араб.-саралаш, тартибга солиш), классификация-илм ёки инсон фаолиятининг бирор соҳасига оид ўзаро бир хил тушунчалар системаси.

Тупроқ классификацияси

Систематика
тупроқларни умумий
хусусиятларига қараб
гуруҳлаш

Диагностика
маълум бир хусусиятлар
гўпламига мувофиқ
тупроқларнинг турли хил
бўлинмаларга
мансублигини аниқлаш

Таксономия
тупроқларни уларнинг
иерархиясини ўрнатиш билан
тизимлаштириш

Номенклатура
тупроқларнинг хоссалари ва
таснифланиш ҳолатига
мувофиқ номланиши

К.Д.Глинка классификацияси

- **I тип Латерит тупроқлар.**

Улар типик латеритлар, субтропик қизил тупроқлар ва муътадил илиқ ўлкаларнинг қизил тупроқлардир.

- **II тип Подзоллашган тупроқлар.**

Бу тупроқлар қўнғир тупроқлар, подзол глейли, торфли подзол, бирламчи подзоллашган, ўтлоқ-подзоллашган қора, иккиламчи подзоллашган тупроқлар.

- **III тип Дашт тупроқлари.**

Бу тупроқлар, каштан, қўнғир, бўз ва субтропик дашт қизил тусли тупроқлари.

- **IV тип Ботқоқ тупроқлар**

Ботқоқ, ўтлоқ- ботқоқ, шўрхок ботқоқ ва шўрхокларга бўлинади.

Tuproqlar sistematikasi - bu yer yuzida mavjud bo'lgan barcha tuproqlarning turli-tumanligi haqidagi ularning diagnostik belgilariga asoslangan har xil guruhlarining orasidagi o'zaro aloqasi va bog'liqligini ko'rsatib beradigan ta'limotdir.

Tuproqlar sistematikasining asosiy maqsadi yer yuzida, shu jumladan, alohida mamlakatlar, davlatlarda tarqalgan tuproqlarining to'liq tizimi (klassifikatsiyasi) ni yaratishdir.

Tuproqlar sistematikasi ***tarixiy-taqqoslash va geografik-taqqoslash uslublariga, tuproqlarning evolyutsion rivojlanishi tamoyillariga tayanadi***, unda tuproqshunoslikning barcha bo'limlari ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Sistematika uchta **vazifani** bajaradi:

- yer yuzasida tarqalgan tuproqlar orasidagi sifat va miqdor jihatidan farqlarni aniqlab beradi;
- tuproqlar haqida imkoni boricha to'liq ma'lumotlarni yig'adi va mavjud ma'lumotlar asosida tuproqlarning mantiqiy ketma - ketligi bo'yicha ro'yxatini shakllantiradi, ularga asosan tuproqlar nomenklaturasi ro'yxati va klassifikasiyasi tuziladi.
- demak tuproqlar sistematikasi tuproqlarning kengaytirilgan aniqlovchisi bo'lib, fanda ma'lum bo'lgan har bir tuproqning mukammal ta'rifini bermog'i lozim.

Yuqorida ko'rsatilgan vazifalar tuproqlar sistematikasida tuproqlar nomenklaturasi, taksonomiyasi va diagnostikasi asosida va yordamida yechiladi.

Tuproq klassifikasiyasining rivojlanish tarixida to'rtta etapni ajratish mumkin:

1) Dokuchayevgacha, bunda geologiya, kimyoviy va fizikaviy klassifikasiya prinsiplari ustun bo'lgan;

2) V.V.Dokuchayev, N.M.Sibirsev, K.D.Glinkalar tomonidan asos solingan va tuproqlarni genetik klassifikasiyalash prinsiplari ishlab chiqilgan;

3) Hozirgi davr (taxminan XX asrning 50 yillaridan), bunda taksonomik birliklar va diagnostik ko'rsatkichlar tizimi uzil-kesil ishlab chiqilgan, (mamlakatlarda tuproqlarni milliy klassifikasiyalash, tuproq paydo bo'lish rejimlari, ekologik sharoitlar ancha to'liq hisobga olingan);

4) Yangi davr (XX asr 90 - yillarining boshlanishidan), klassifikasiyalashda, taksonomik birliklar-bo'linmalardan to tipchalargacha bo'lgan ierarxik sistemalarda mos rayishda turli darajani egallaydigan, antropogen o'zgarishlarning barcha bosqichlari hisobga olinadi.

Тупроқлар классификациясининг умумий схемаси

Экологик генетик (биогендик) группалари ёки синфлари	Намланмиш даражасига кўра тупроқ тилларининг генетик қатори			
	Автомерф тупроқлар	Ярим гидроморф тупроқлар	Гидроморф тупроқлар	Соҳил аллювиал тупроқлар
Арктика ва тундра вилоятлари тупроқлари	1) тундранинг глейли, 2) тундранинг чимли, 3) тундранинг қолдиқ торфли тупроқлари	Тундранинг ботқоқлашган тупроқлари	1) Тундранинг ботқоқ 2) тундранинг аллювиал ботқоқ тупроқлари	1) Тундранинг чимли соҳил тупроқлари
тайга-ўрмон вилоятлари тупроқлари	1) подзол, 2) чим-чириңдили антоген, 3) чим-карбонатли, 4) муздоқ ўтлоқ-ўрмон 5) ўрмон сур тусли тупроқлар	1) Ботқоқлашган подзол, 2) чим-глейли, 3) Ўрмон сур тусли глейли тупроқлар	1) баландлик ботқоқ 2) пастлик ботқоқ тупроқлар	1) соҳил аллювиал чимли 2) соҳил аллювиал чимли-глейли 3) соҳил аллювиал ботқоқ тупроқлар
Ўрмон вилоятларининг қўнғир тупроқлари	1) ўрмон қўнғир, 2) подзоллашган ўрмон қўнғир, 3) рендзин-қўнғир тупроқлар	1) Ўрмон-қўнғир глейли, 2) подзоллашган ўрмон-қўнғир 3) ўтлоқ қора, 4) ўтлоқи қўнғир тупроқлар	1) ўтлоқи глейли 2) тўқ тусли ўтлоқ тупроқлар	1) соҳил аллювиал қўнғир-чимли, 2) соҳил аллювиал қўнғир-чимли глейли, 3) соҳил аллювиал қўнғир ботқоқ тупроқлар

Stvollar yuqori taksonomik birlik sifatida tuproqlarning tuproq paydo bo'lish jarayonlari va litogenezing nisbatini namoyon etadi. Bo'limlar profil tuzilishi asosiy elementlarining o'xshashligi va ularning tuproq paydo bo'lish asosiy jarayonlarini hosil qilishidagi birligi bilan xarakterlanadi.

Подзол тупроқ атамаси русча «Подзол» («кулранг») сўзидан олинган ва бу номни дастлаб 1873 йилда В.В.Докучаев илмий адабиётларга киритган.

Подзол тупроқлар асосан тайга-мохли ёки игна баргли ўрмонлар остида шаклланади.

Ботқоқ тупроқларнинг келиб чиқиши асосан икки йўл билан: сув ҳавзаларининг торф босиши ва қуруқликларнинг ботқоқланиши натижасида рўй беради.

Қора тупроқлар ҳосил бўлишидаги моддаларнинг биологик айланишининг муҳим хусусияти – ўсимлик қолдиқлари билан бирга ҳар йили тупроққа тушадиган азот ва кул моддаларининг кўп тўпланишидир.


Қора тупроқлар асосий майдонлари Молдавия ва Украинада, Шимолий Кавказда, қатор Марказий вилоятларда, Волга бўйи, Ғарбий Сибирь ҳамда Шимолий Қозоғистонда жойлашган.

Сур-қўнғир тусли тупроқларнинг тузилиши ва хоссалари ўта қуруқ чўлларнинг ксерофит-эфемерли ўсимликлари таъсирида кечадиган тупроқ пайдо бўлиш жараёнларининг ўзига хос хусусиятлари билан белгиланади.

«Taksonomiya» so'zi grekcha taxis - tuzilma, tartib yoki lotincha taks - baholayman va nomos - qonun degan ma'noni anglatadi.

Taksonom birliklar (taksonlar) - bu qandaydir obyektlar sistemasida klass, daraja yoki o'rnini ko'rsatadigan, ularning batafsillik yoki aniqlik darajasi belgilaydigan, klassifikasiyalash (tasniflash) yoki sistematalash (tartibga solish), birliklaridir.

Тупроқларни таксономик бирликлари



Tip deb, deyarli bir xildagi tuproq paydo bo'lish jarayonlari kechadigan hamda o'xshash fizik-geografik sharoitlarda katta maydonlarda shakllangan aniq tuproqlarga aytiladi.

Masalan, chala cho'llardagi qo'ng'ir tuproqlarni rangi o'xshash bo'lgani boshqa tuproqlardan farqini ajratish uchun, qo'ng'ir o'rmon tuproqlari nomi yoki bo'z tuproqlardan aniqroq farqlash uchun o'rmon sur tuproqlari atamaları kiritildi.

Hozirda O'zbekistonda tuproqlarning 22 tiplari va 59 tipchalariga (B.V.Gorbunov, N.V.Kimberg, 1962) ajratilgan.

Tipcha tuproq tiplari orasida ajratiladigan taksonomik birlik bo'lib, qiosiy hamda qo'shimcha tuproq paydo qiluvchi jarayonlarning borishida muhim sifatli farqlar bilan xarakterlanadi.

Tipchalarga bo'layotganda tuproq poydo qiluvchi jarayonlarning zonal (shimoldan janubga qarab) o'zgarrishi bilan birga fasial (sharqdan g'arbga qarab) o'zgarishi ham e'tiborga olinadi.

Ayrim belgilarini aniqlash uchun qo'shimcha jarayonlarni xarakterlovchi (podzollashgan qora, ishqorsizlangan qora tuproqlar)

Morfologik xususiyatlari jumladan, rangining o'zgarishiga qarab (och tusli - sur, to'q tusli - sur, to'q tusli, och tusli - bo'z, kashtan va qo'ng jigarrang)

Tuproq zonasi ichidagi tipcha o'rnini aks ettiruvchi (g'arbiy qora, shimoliy bo'z tuproq singari) atamalar ishlatiladi.

Avlod tipchalar orasida tuproq gruppalarini o'ziga birlashtiradi.

Ona jinslarning tuzilishi va xossalari, sizot suvlarining kimyoviy tarkibi kabi omillar natijasida tuproqning sho'rxoklanishi, sho'rtoblanishi va karbonatlanishi singari jarayonlarning borishi ro'y beradi.

(sho'rtobsimon, sho'rxoksimon) (qoldiq-o'tloq, qoldiq-podzol kabilar) asos qilib olinadi.

Tur - avlodlar orasida ajratiladigan tuproq gruppalari bo'lib, tuproq paydo qiluvchi jarayonlarning borish jadalligiga ko'ra ajratiladi.

Masalan, podzollanish jarayonlarining, gumus to'planishining jadalligi va uning chuqurligi, sho'rlanish, eroziyalanish darajasi singarilar turlarni belgilovchi ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Tur xili -tuproqning yuqori qatlamlari va ona jinslarining mexanik tarkibiga ko'ra ajratiladi.

Razryad - tuproq ona jinslarining kelib chiqishi asosida bo'linadi. Jumladan morena jinslari, allyuvial va lyossimon jinslar tuproqlarning har qaysisi alohida razryadlarni tashkil etadi.

Тупроқни классификацияси

**bo'z tuproq, қора, каштан..... (tip),
och tusli, тўқ тусли, жигарранг..... (tipcha),
Shimoliy, жанубий, шарқий шимолий..... (fasiya),
sho'rxoksimon, шўртоб, корбанатли, гипсли.... (avlod),
o'rtacha qalinlikdagi, кам, gumusli(tur),
og'ir qumoq, yengil қумлок..... (xil),
lyossimon qumoq jinslar (razryad) ni aks ettiradi.**

